

OKSIKISLOTALARNING TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI

Negmatova Gulbahor


Muhiddinov Xusniddin Muhiddinovich

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi

Anotatsiya: Inson organizmiga foydalilik jihati bor moddalar qatorida ba'zi oksikislotalarni ham uchratishimiz mumkin. Limon va salitsil kislotasi manashunday moddalar jumlasiga kiradi. Limon va salitsil kislotasi tibbiyotda turli kasalliklarga qarshi dori darmonlar sifatida qo'llanib kelinmoqda.

“Hamma narsani kechirish mumkin lekin tibbiyotdagi kamchiliklarni kechirib bo'lmaydi” Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Miromonovich tomonidan aytilgan ushbu so'zlar sog'liqni saqlash qanchalik muhim soha ekani va bugun mamlakatimizda ushbu tizimga qay darajada jiddiy etibor qaratilayotganini kichik bir nishonasidir. Hozirgi vaqtda sanoatning jadal sur'at bilan rivojlanib borayotgan bir paytda insonlarning tibbiyotga bo'lgan ehtiyoji ham ortib bormoqda. Oksikislotalar sinfiga mansub bo'lgan limon va salitsil kislotasi va uning hosilalari ham mana shunday insonlar sog'ligiga xizmat qiluvchi moddalar qatorida hisoblanadi.

Limon kislotasi.



Limon kislota tibbiyotda qonni uzoq vaqt saqlashda hamda ishqorlar bilan zaharlanganda zaharni kesuvchi modda sifatida ishlatiladi. Limon kislotasi limon mevasi tarkibida uchraydi. Limon mevasining tarkibida limon kislotasidan tashqari turli glikozidlar, efir moyi, fitotsidlar, shakar moddalari, darmondorilar, mineral moddalar ham uchraydi. Xalq tabobatida limon mevasi qadrlanadi, u turli hil hastaliklarni davolashda yaxshi natijalar beradi. Limon mevasi me'da kasalligida, jigar (sarik, surunkali gepatit), o't yo'llari (o'tkir va surunkali holetsistit), buyrak hastaliklarida keng qo'llanadi. Limon mevasi shuningdek, bug'in va muskullar og'riganda (podagra, bod, radikulit) hamda qon tuxtatuvchi omil sifatida ishlatiladi. Limon shamollaganda, darmon quriganda, tomoq og'riganda, yuqumli hastaliklarda malham bo'ladi. Limon mevasi homilador ayollarning qon tomirlari kengayishining oldini oladi. Limonda qon bosimini pasaytirish hosiyati bor. Diabet xastaligida ham limon dori sifatida ishlatiladi. Limon zamonaviy tabobatda darmondorilar


etishmaganda, parishonhotirlikda, ichki kasalliklarni davolashda, kapillyarlarning turg'unligini oshirishda ishlatiladi. Limon tanaga darmon bo'lish bilan birga inson umrini o'zaytiradi ham.

Salitsil kislota aromatik kislota sifatida tuzlar (natriy salitsilat), murakkab efirlar (metilsalitsilat, fenilsalitsilat) xosil qiladi. U murakkab efirlar (atsetilsalitsil kislota) ni fenol gidroksili xisobiga xam xosil qiladi. Natriy salitsilat tibbiyotda isitmani tushiradigan xamda yallig'lanishga qarshi vosita sifatida ishlatiladi. U suvda yaxshi eriydi, shilliq pardalarga kuchli ta'sir etmaydi, shuning uchun u eritmalar xolida yoki qo'sh tuzlar (kofein-natriy salitsilat) tarkibida ichishga beriladi.

Metilsalitsilat ba'zi bir o'simliklar efir moylari tarkibida uchraydi. Asosan, sun'iy usul bilan salitsil kislotani metillab olinadi. U moysimon suyuqlik bo'lib, kuchli o'ziga hos xidga ega. Metilsalitsilat sof xolda xamda surtma moylar tarkibida revmatizmni davolashda ishlatiladi.

Atsetilsalitsil kislota yoki aspirin murakkab efir bo'lib, u tibbiyotda, ko'pincha revmatizmni davolovchi, isitmani tushiruvchi va og'riqni qoldiruvchi vosita sifatida ishlatiladi.

Salitsil kislotaning tibbiyotda qo'llanadigan xosilalaridan yana biri p-aminosalitsil kislota (PASK)dir. U m-aminofenolga uglerod dioksidini ta'sir ettirib olinadi:



PASK tibbiyotda sil kasalligini davolashda keng ishlatiladi. PASKning sil kasalligini davolovchi ta'siri uning mikroorganizmlarning normal yashashi uchun zarur bo'lgan m-aminobenzoy kislotaning antagonisti ekanligi bilan tushuntiriladi. PASK tibbiyotda sil kasalligini davolashda keng ishlatiladi.